

ELVIN TOFFLER IJTIMOVIYOTCHI VA FUTUROLOG SIFATIDA**ABDURAXIMOVA Dilaram****ANNOTATSIYA**

Maqolada Alvin Tofflarning (1928-2016) qarashlari ko'rib chiqiladi. Toffler o'z e'tiborini texnologik inqilobning jamiyat hayotidagi o'rni, zamonaviy intensiv ishlab chiqarish jarayonida madaniyatning o'zgarishi, korporativ iqtisodiy infratuzilmani o'rganishga qaratgan futurologdir.

Kalit so'zlar: Alvin Toffler, texnologik inqilob, futurologiya, futurologik prognoz, "Uchinchi to'lqin"

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается взгляды Элвина Тоффлера (1928-2016). Тоффлер принадлежит к футурологам которые концентрирует свое внимание исследовании роли технологической революции в жизни общества трансформации культуры в процессе современного интенсивного производства, корпоративное экономической инфраструктуры и активной демократизации.

Ключевые слова: Элвин Тоффлер, технологическая революция, футурология, футурологический прогноз, «Третья волна»

ABSTRACT

In article is considered glances Elvin Toffler (1928-2016). Toffler belongs to futurology, which concentrates its attention on study dug the technological revolution in lifer's society, transformation of the culture in process modern intensive production, corporative economic infrastructure and active democratization.

Keywords: Alvin Toffler, technological revolution, futurology, futurological forecast, "Third Wave"

Elvin Toffler (1928 yilda tugilgan) jamiyat xayotidagi strategik o'zgarishlari taxlil qilishda futurolog sifatida yondashadi. Uning insoniyat istiqboliga taaluqli fikr-muloxazalari bir qancha siyosatchi va faylasuflar tomonidan tanqid qilingan bo'lsada, uning qarashlarida sivilizatsiyaviy o'zgarishlarga daxldor haqiqatlarning ma'lum unsurlari mavjudligini anglab olish mumkin. Tofflarning deyarli barcha asarlarida jamiyatning taraqqiyot an'analari xakida fikr muloxazalar ilgari surilgan bo'lib, ulardagi zamonaviy ruxiyat xar bir kitobxonni o'ziga maxliyo etib qo'yish xususiyatiga ega. Aynan shuning uchun xam Toffler tamaddun bashoratchisi sifatida bir qancha siyosatchi va faylasuflar tomonidan e'tirof etiladi.

Toffler insoniyat sivilizatsiyasining murakkab axamiyat kasb etishini nafaqat sotsiologiya yoki falsafa doirasida balki ,psixologik masalalar bilan bog‘lab tushuntirishga xarakat qiladi. Shu ma’noda uning futurologik konsepsiyasi xam o‘zida inson ruxiyatidagi yangiliklar oqimiga bo‘lgan moslashish nuqtai nazaridan taxlil qilinadi.

Tofflarning asarlarida asosan quyidagi ijtimoiy va futurologik axamiyatga ega bo‘lgan masalalar taxlil qilinganligini ko‘rish mumkin : insoniyat yangi sivilizatsiyaga qadam qo‘yar ekan bu sivilizatsiyada oilaviy munosabatlarni yangi shakillari yuzaga keladi,ishlab chiqarishning yangi shakillari va texnologiyasiga asos solinadi,siyosat soxasida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ladi,insonlarning psixologik munosabatlari murakkab o‘zgarishlarni o‘z ichiga qamrab oladi,mamlakatlar o‘rtasidagi barcha soxalardagi aloqalar global axamiyat kasb etadi , madaniyatlar va milliy urf odatlar , turli dinlar xamda ma’rifat maskanlarining faoliyati tub o‘zgarishlarga yuz tutadi.

Elvin Toffler insoniyat sivilizatsiyasining o‘tmishigina emas , balki uning kelajagidagi voqea va xodisalarni bashorat qilib , insoniyatni yashash tarzi yanada murakkab axamiyat kasb etishini bashorat qiladi . Shu ma’noda Toffler dunyo jamoatchiligiga futurolog sifatida xam yaxshi tanish.

Xush futurolog nima bilan shugullanadi , degan savol tug‘ilishi tabiiy?Bu savolga javob berishdan oldin bu so‘zning etimologik ma’nosiga to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi . *Futurologiya* lotincha *futurum* so‘zidan olingan bo‘lib , kelajak ,logos esa bilim ta’limot (4,332-b), ya’ni kelajak xaqidagi bilim degan ma’noni bildiradi . Falsafiy nuqtai nazardan umumiy konseptual asosiga ko‘ra, yer yoki insoniyat kelajagi xaqidagi konsepsiya bo‘lsa , ilmiy bilish ma’nosida esa ijtimoiy jarayonlarni muxim xususiyatlarini bashorat qilish kabi tushunchalar bilan sinonim xisoblanadi .Shuningdek ba’zi psixologik lug‘atlarda *futurologiya kelajak xaqidagi fan sifatida qayd etiladi*. Shu ma’noda olib qaraydigan bo‘lsak , futurolog insoniyatni kelajagi to‘grisidagi konseptual qarashlarni ilgari surgan olim xisoblanadi.

Xozirda biz turli soxalarda shakillangan futurologik qarashlarni uchratishimiz mumkin.Bular ilmiy ,madaniy ,gumanistik, ekologik, diniy va boshqalar.Toffler insoniyatni kelajagi tug‘risida fikr yuritar ekan avvalo u bugungi kunimizdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda o‘z fikr muloxazasini ilgari suradi.Uning fikricha , «Bugungi kunda qayta qurishlar texnik jixatdan yuksak darajada taraqqiy etgan mamlakatlarda jamoatchilik tashkilotlarini va boshqaruv tizimini larzaga solmoqda. Berlin va Nyu- York,

Turin va Tokio talabalari dekanlari va rektorlarini asir olishmoqda , ulkan ma’rifat fabrikalarini to‘xtatib qo‘yishmoqda,xatto xukumatlarni ag‘darib tashlaymiz deb

,taxdid qilishmoqda.Nyu-York , Vashington va Chikago gettodlarida xususiy mulkni muxofaza qiluvchi qadimiy qonunlar oshkora buzilayotganini politsiyachilar qo'llarini qovushtirib tomosha qilib turishibdi. Jinslar aro munosabatlardagi sharm-xayo uloqtirib tashlanmoqda.Ish tashlashlar , elekt tarmogidagi avariylar tartibsizliklar katta shaxarlar xayotini ishdan chiqarmoqda» (2,-.20). Shuningdek , Toffler jamiyatni yetakchi xarakatlantiruvchi kuchi va kelajakni strategik taraqqiyot mezonlarini belgilab beruvchi yosh avlodning bugungi kundagi ruxiyati va amaliy faoliyati xaqida juda xam achinish bilan fikr yuritadi.Uning e'tirof etishicha, (Bizning kuz o'ngimizda bir vaqtning o'zida yoshlarning g'alayonlari va shaxvatparastlik bobidagi (inqilob) larni insonlar boshdan kechrishmoqda).Toffler yana insoniyat xayotiga xavf solayotgan boshqa xolatlar xaqida xam fikr yuritib "irqiy tartibsizliklar va mustamlakalardagi inqiloblar,iqtisodiy qayta qurishlar va tarixdagi eng tezkor , eng teran inqilob sodir bo'lmoqda. Biz industrializmning umumiy bo'ronini boshdan kechiryapmiz.Xullas kalom super industrial zil-zilalar eng avjiga chiqqan bir davrda yashayapmiz".(3,-4),degan xulosaga keladi.

REFERENCES

1. Shavkat Mirziyayev Konstitutsiya erkin va farovon hayotimiz,mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustshkam poydevoridir//Prezident Shavkat Mirziyayevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
2. E.Toffel Tretya volna : per.S angl./ E.Toffler . –M.:OOO(izdatelstvo AST),2004.
3. E.Toffler Shok budushnego : peo S angl./ E.Toffler . –M.:OOO(izdatelstvo AST),2004.